



# ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **6 015** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 994** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **18 615,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **106,4 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 256,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **17 359,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,3 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 886,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,7 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>18 615,1</b>	<b>106,4</b>
Andijon sh.	5 161,3	108,7
Xonobod sh.	195,5	105,6
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	763,1	109,3
Andijon	1 181,2	103,9
Baliqchi	1 203,6	103,6
Bo'ston	273,5	107,1
Buloqboshi	587,0	103,4
Jalaquduq	618,1	110,3
Izboskan	651,2	107,5
Ulug'nor	257,0	103,3
Qo'rg'ontep'a	1 290,3	112,8
Asaka	1 610,9	104,6
Marhamat	837,2	103,6
Shahrixon	2 448,4	103,8
Paxtaobod	865,5	103,7
Xo'jaobod	671,4	103,9


2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**8,7 %**), Jalaquduq (**10,3 %**), Qo'rg'ontep'a (**12,8 %**) va Oltinko'l (**9,3 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




**Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-noyabr)**



So'nggi 5 yillikda (2019-2023-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yilga tog'ri kelib, **111,0 %** ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2022-yil, 2023-yil yanvar -noyabr oy)**




2023-yilning yanvar-noyabr oyida o'sish sur'ati **106,4 %** ni tashkil qildi.



**yanvar-noyabr 2023-yil**

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **27,7 %** bilan **5 161,3 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,1 %** bilan **195,5 mlrd. so'mni** tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **17 359,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **6,3 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,3 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **8,0 %** ga o'sdi va **1 256,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,7 %** ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (**99,1 %**), Qo'rg'ontep'a (**99,1 %**), Shahrixon (**98,9 %**) va Buloqboshi (**98,5 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **6,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (**16,0 %**), Andijon (**8,0 %**), Bo'ston (**7,0 %**) va Oltinko'l (**6,5 %**) tumanlarida kuzatildi.



## **AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

### **Hududlar kesimida ma'lumot**

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>5 557,8</b>	<b>104,1</b>
Andijon sh.	10 916,4	106,2
Xonobod sh.	4 316,4	103,5
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	4 012,0	107,1
Andijon	4 184,0	101,7
Baliqchi	5 650,5	101,4
Bo'ston	3 561,0	105,0
Buloqboshi	3 884,9	101,3
Jalaquduq	3 143,8	108,2
Izboskan	2 582,2	105,4
Ulug'nor	4 059,9	101,7
Qo'rg'ontep'a	5 669,2	110,8
Asaka	4 598,7	102,3
Marhamat	4 552,5	101,5
Shahrixon	7 653,6	101,4
Paxtaobod	4 203,6	101,4
Xo'jaobod	5 680,3	101,2

2023-yilning yanvar-noyabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 557,8** ming so'mni (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,1 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**10 916,4** ming so'm), Shahrixon (**7 653,6** ming so'm) va Xo'jaobod (**5 680,3** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 886,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,7 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 238,9** mlrd. so'mni (**127,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1647,6** mlrd. so'mni tashkil etdi (**106,7 %**).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-noyabr, foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda**



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.



## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 886,6</b>	<b>106,7</b>
Andijon shahar	646,5	130,6
Xonobod shahar	6,9	63,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	45,1	103,3
Andijon	80,1	99,7
Baliqchi	170,1	89,6
Bo'ston	24,8	134,2
Buloqboshi	97,3	95,9
Jalaquduq	91,5	157,6
Izboskan	38,2	162,0
Ulug'nor	93,4	88,6
Qo'rg'ontep'a	193,2	338,9
Asaka	296,4	100,2
Marhamat	157,5	96,6
Shahrixon	584,6	94,1
Paxtaobod	244,7	81,4
Xo'jaobod	116,4	82,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 238,9** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**421,5** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

<b>Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b>	<b>mlrd. so‘m</b>
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>421,5</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>347,5</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>148,5</b>
	<b>Tovuq go‘shti</b> <b>50,4</b>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) <b>43,6</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...) <b>25,2</b>
	<b>Tuxum</b> <b>37,2</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</b> <b>8,2</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>46,0</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>28,1</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>13,9</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>68,8</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so‘m

2023-yilning yanvar-noyabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 647,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **1 396,3** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar – **227,1** mlrd. so‘mni, otlar – **12,9** mlrd. so‘mni, parrandalar – **10,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	mlrd. so‘m
 2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	834,8
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	345,6
 1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	215,9
 Qo‘ylar	221,9
 Otlar	12,9
 Echkilar	5,2
 Kurka, o‘rdak, g‘oz	7,3
 Tovuqlar	3,0
 Quyonlar	0,6
 Qushlar	0,4



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023-yil **1-dekabr** holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 186** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 185** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>348,6</b>	<b>111,3</b>
Andijon sh.	151,4	111,4
Xonobod sh.	4,4	112,1
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	16,9	111,8
Andijon	27,4	108,9
Baliqchi	7,0	110,6
Bo'ston	8,6	110,0
Buloqboshi	3,0	110,1
Jalaquduq	7,2	110,1
Izboskan	10,2	111,9
Ulug'nor	3,9	111,6
Qo'rg'ontepqa	15,3	110,0
Asaka	15,5	111,0
Marhamat	11,0	110,7
Shahrixon	45,8	113,5
Paxtaobod	12,3	112,9
Xo'jaobod	8,6	111,3

2023-yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **348,6** mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan **111,3 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




**yanvar-noyabr 2023-yil**

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yil 1-dekabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **3 539,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **129,7 %** ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 782,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **149,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1 757,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **114,3 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**yanvar-noyabr 2023-yil**

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot



	Hajm, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 539,1</b>	<b>114,0</b>
Andijon sh.	2 447,3	116,8
Xonobod sh.	0,3	106,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	143,6	103,1
Andijon	119,4	103,1
Baliqchi	3,5	104,1
Bo'ston	0,4	104,4
Buloqboshi	0,7	104,6
Jalaquduq	3,5	103,7
Izboskan	1,5	104,7
Ulug'nor	0,2	105,6
Qo'rg'ontep'a	39,6	103,2
Asaka	413,4	135,1
Marhamat	12,6	103,2
Shahrixon	12,3	103,8
Paxtaobod	2,6	104,0
Xo'jaobod	338,3	91,6

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**2 447,3** mlrd. so'm), Asaka (**413,4** mlrd. so'm) va Xo'jaobod (**338,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**yanvar-noyabr 2023-yil**


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **6 030,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **10,1 %** ga o‘sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **5 526,0** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **107,8 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **91,6 %** ni tashkil qildi.



**yanvar-noyabr 2023-yil**


## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinko'l, Andijon va Jalaquduq tumanlarida kuzatildi.

2023-yil **1-dekabr** holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 929** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **26** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 900** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>6 030,2</b>	<b>110,1</b>
Andijon sh.	2 070,5	103,3
Xonobod sh.	28,6	108,3
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	326,6	120,8
Andijon	704,5	142,9
Baliqchi	402,7	106,7
Bo'ston	148,7	105,9
Buloqboshi	129,8	106,5
Jalaquduq	66,8	116,0
Izboskan	114,3	106,9
Ulug'nor	64,7	107,9
Qo'rg'ontepə	154,3	108,4
Asaka	190,5	109,5
Marhamat	102,9	115,1
Shahrixon	1 339,3	106,5
Paxtaobod	106,1	107,6
Xo'jaobod	79,9	139,1





**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 74 228-30-57**